



DO‘STLIK VA YAXSHI QO‘SHNICHILIK ALOQALARINI KENGAYTIRISHGA ALOHIDA E‘TIBOR QARATILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-dekabr kuni amaliy tashrif bilan Ashxobod shahriga keldi.



Poytaxt aeroportida davlatimiz rahbarini Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisining o‘rinbosari Xojamirat Geldimiradov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

O‘zbekiston Prezidenti Ashxobod shahriga kelgach, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Davlatimiz rahbari Turkmaniston yetakchisini tarixiy sana — doimiy betaraflikning o‘ttiz yilligi bilan samimiy tabrikkladi hamda ushbu muhim voqeaga bag‘ishlab ertaga o‘tkaziladigan xalqaro forum ishiga muvaffaqiyatlar tiladi.

Subbat davomida O‘zbekiston — Turkmaniston strategik sheriklik, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini, birinchi navbatda, siyosiy, parlamentlararo, savdo-iqtisodiy, madaniy hamda gumanitar sohalarida yanada kengaytirishga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘zbekiston va Turkmaniston yetakchilari mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalarni ham ko‘rib chiqdilar.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Davlatimiz rahbari Turkmaniston Prezidenti va qardosh xalqini mamlakat betarafligi e‘lon qilinganining 30 yilligi, ushbu muhim sanaga bag‘ishlangan xalqaro forum yuqori saviyada tashkil etilgani hamda 2025-yil “Xalqaro tinchlik va ishonch yili” deb e‘lon qilingani bilan samimiy tabrikkladi.

Turkmaniston Prezidentining yaqinda bo‘lib o‘tgan O‘zbekistonga davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston — Turkmaniston strategik sherikligini yanada kengaytirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Yil boshidan buyon tovar ayirboshlash qariyb bir milliard dollarga yetdi. “Shovot-Toshovuz” chegaraldi savdo zonasi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Yuk tashish hajmi 30 foizga oshdi, jumladan, Turkmanboshi porti orqali yetkazib berish faollashdi. Gumanitar va hududlararo almashinuvlar davom etmoqda.

Hukumatlararo komissiya, Ishbilarmonlar kengashi va Hududlar forumining bo‘lajak yig‘ilishlarida savdo hajmini karrasiga oshirish hamda iqtisodiyot tarmoqlari, xususan, energetika, qishloq xo‘jaligi, transport va boshqa sohalarida qo‘shma loyihalarni samarali ilgari surish bo‘yicha ta‘sirchan choralar ko‘rish muhimligi ta‘kidlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkmanistonga amaliy tashrifi davom etmoqda.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON – PARAGVAY: MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHDA YANGI BOSQICH

Paragvay Respublikasi Prezidenti Santyago Penya 11-dekabr kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.



Oliy martabali mehmonni “Toshkent-Humo” xalqaro aeroportida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari Jamshid Qo‘chqorov va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Ko‘ksaroy qarorgohida Paragvay Respublikasi Prezidenti Santyago Penyani kutib olish marosimi bo‘ldi.

Shu yerda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Paragvay Respublikasi Prezidenti Santyago Penya rasmiy delegatsiyalar ishtirokida muzokara o‘tkazdilar.

O‘zbekiston bilan Paragvay o‘rtasidagi amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash istiqbollari muhokama qilindi.

O‘zbekiston yetakchisi Paragvay rahbarini samimiy qutlar ekan, Lotin Amerikasi davlati Prezidenti tomonidan O‘zbekistonga ilk bor amalga oshirilayotgan ushbu tashrif tarixiy ahamiyatga ega ekanini qayd etdi. Mazkur sammit ikki mamlakat o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni rivojlantirishda yangi davrni boshlab berishi ta‘kidlandi.

Muzokaralarda ikki tomonlama hamkorlikni, jumladan, savdo-iqtisodiyot, madaniy-gumanitar, ta‘lim va boshqa sohalarida kengaytirishning ustuvor yo‘nalishlari muhokama qilindi.

O‘zaro savdoni ko‘paytirish, ishbilarmonlik aloqalarini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat va kimyo sanoati, raqamlashtirish, turizm hamda sport sohalarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi. Uchrashuv yakunida tomonlar siyosiy muloqotni yanada rivojlantirish va o‘zaro manfaatli sohalarida amaliy hamkorlikni chuqurlashtirishga tayyorligini tasdiqladilar.

Bo‘lib o‘tgan muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Paragvay Respublikasi Prezidenti Santyago Penya Qo‘shma bayonotni imzoladilar.

Shuningdek, yetakchilar huzurida O‘zbekistonning JSTga qo‘shilishi doirasida bozorga kirish masalalari bo‘yicha ikki

tomonlama muzokaralar yakunlangani to‘g‘risidagi bayonnoma hamda Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi siyosiy maslahatlashuv mexanizmini yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida o‘zaro anglashuv memorandumini imzolash marosimi o‘tkazildi.

O‘zbekiston bilan Paragvay o‘rtasida oliy darajadagi muzokaralar yakunlangach, Ko‘ksaroy qarorgohida daraxt ekish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik hamda sherikchilikni mustahkamlashga, ikki tomonlama munosabatlar tarixida yangi sahifa ochishga o‘zaro qat‘iy intilishning ramzi sifatida Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Santyago Penya birgalikda Faxriy mehmonlar xiyobonida daraxt ekdilar.

Paragvay Respublikasi Prezidenti Santyago Penyaning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi davom etmoqda.

Z.JONIBEKOV,
O‘ZA muxbiri

Taqdimot

O‘zbekiston Milliy kutubxonasida pokistonlik yozuvchi va jurnalist Muhammad Abbas Xonning “O‘zbekiston: Uchinchi Renessans — taraqqiyot konsepti” nomli kitobining o‘zbek tilidagi nashri taqdimoti bo‘lib ‘tdi.

O‘ZBEKISTON: UCHINCHI RENESSANS — TARAQQIYOT KONSEPTI

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Oliy Majlis palatalari vakillari, Pokiston Prezidenti maslahatchisi va matbuot kotibi Murtazo Solangi boshchiligidagi delegatsiya a‘zolari, vazirlik va idoralar, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan diplomatik korpus vakillari, nodavlat notijorat tashkilotlar hamda OAV xodimlari ishtirok etdi.

Urdu tilida yozilgan ushbu asarda Prezidentimiz ilgari surgan Uchinchi Renessans g‘oyasining mazmun-mohiyati badiiy-publistsistik uslubda ochib berilgan. Muallif konsepsiyaning ma‘rifat, tinchlik, muloqot va insoniyatni hamkorlikka chorlovchi yuksak qadriyatlarga tayangan holda global o‘zgarishlar falsafasini chuqur yoritgan.

“O‘zbekiston: Uchinchi Renessans — taraqqiyot konsepti” kitobi “Yangi davr tasodifan shakllanmaydi. Avvalo, u inson shuurida uyg‘onib, keyin hayotimizda namoyon bo‘ladi” degan fikrlar bilan boshlanadi.

“G‘oyalar bu abstrakt tushunchalar emas, balki tarix yo‘nalishini o‘zgartirishga qodir ulkan kuchdir. O‘zbekiston Prezidenti janob Shavkat Mirziyoyevning Uchinchi Renessans konsepsiyasi shunchaki g‘oya emas, balki insonparvarlik, ma‘rifat va ta‘limga asoslangan aniq amaliy dasturdur. Uning maqsadi — barqaror rivojlanish va farovonlikka erishish, keng ma‘noda esa — adolatli va samarali jahon tartibini barpo etishdir”, deb ta‘kidlaydi Muhammad Abbas Xon.

➡ Davomi 2-betda

Nuqtayi nazar

IJTIMOIIY BARQARORLIK VA MA’NAVIYAT

yoxud globallashuv sharoitida paydo bo‘layotgan

TAHDIDLARGA QARSHI KURASHISHNING O‘ZIGA XOSLIGI

Ko‘hna tarixga nazar tashlab, ba‘zan hayron qolasiz: odamlar, xalqlar, davlatlar, sivilizatsiyalar tarixi shu qadar murakkab, ziddiyatli, qarama-qarshiliklarga boyki, taraqqiyotning omili ham ana shu muammolarning mavjudligidir degan xulosaga kelasiz kishi. Chunki odamzod taraqqiyotning barcha bosqichlarida ijtimoiy hayot, turmush tarzini takomillashtirish, yangiliklarga intilish jarayonida o‘ziga xos qiyinchiliklar, ziddiyatli holatlarni tinimsiz yengib o‘tish, yangiliklar ixtiro qilishga intilgan. Natijada bugun barcha hayron qoladigan darajadagi sivilizatsiyalar kashf etilgan.

Avvallari odamlar hayoti ko‘p hollarda bir tekis, evolyutsion tarzda rivoj topgan bo‘lsa-da, insoniyat taraqqiyotining keyingi davrlarida ilm-fan, ta‘lim sohalarida erishilgan yutuqlar sabab bu jarayon tezlasha boshladi. Dastlabki davrlarda insoniyat turmush tarzi, hashamatlik holati arifmetik o‘sinh bo‘yicha yaxshilanib borgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib, geometrik progressiya asosida taraqqiy etib bormoqda.

Inson hayotini barqarorlashtirish, turmush tarzini takomillashtirish uchun bugun barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda. Shunga mos tarzda hayotimiz ham hashamlik nuqtayi nazaridan, jismoniy mehnatni



yengillashtirish asosida yaxshilanib bormoqda. Mazkur maqolani yozish paytida jaded bobomiz Is‘hoqxon to‘ra Ibratning “Tanlangan asarlari”dagi quyidagi satrlarni o‘qib qoldim: “Madaniyat xotiraga o‘xshagan yangi taomil, yangi so‘z, yangi xat jori bo‘lib, eski nimarsalar, diniy ishlar, bo‘laklari hammasi bilkul qolib, yangi yurib ketar ekanlar... Uyingizda hozir turubdur ayon... chunonchi: chiroq qoldi — lamfa (chiqdi), chaqmoq qoldi — gurgurd (chiqdi)... choyjo‘sh qoldi — choynak (chiqdi), qumg‘on qoldi — samovar (chiqdi) va hokazo yangi nimarsalar ko‘b jori bo‘lib qolgan”.

Xo‘sh, biz mazkur iqtibosni nega keltirdik? Buning jiddiy sababi bor. Agar biz bugun farzandlarimizga bundan atigi yuz yil oldin o‘zbek xalqining turmushi, hayotida bobomiz sanab o‘tgan narsalar yangilik edi, avvallari ajdodlarimiz bugungi turmushimizda zarur bo‘lgan elektr asboblari, jismoniy mehnatni yengillashtiruvchi asbob-uskunalar bo‘lmagandi desak, ular hayron bo‘lishi tayin. Haqiqatan, hayotimiz, turmush

tarzimiz nihoyatda katta tezlikda o‘zgarib bormoqda. Inqilobiy texnologiyalar tufayli yana 30-40-yillardan so‘ng bizni nimalar kutayotganini tasavvur ham qilib bo‘lmaydi.

Demak, insoniyatning moddiyat sohasidagi o‘zgarishlari tinimsiz taraqqiy etib boraveradi. Bunday taraqqiyot, o‘z navbatida, ma‘naviyat va tafakkur olamiga ham jiddiy ta‘sir etmoqda. Bu esa bugun barchamizni o‘ylantirayotgan, insoniyatning bundan keyingi taqdirida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan omil — ma‘naviyat, madaniyat, tarbiya masalalari dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Shaxs tarbiyasi, uning ma‘naviyati, yuksak axloq masalalariga qanchalar ko‘p diqqat qaratganimiz kabi ko‘plab zararli tahdidlar, mafkuraviy-g‘oyaviy bosimlar ham urchib borayotganini unutishga aslo haqqimiz yo‘q. Inson shaxsiyatini buzish, ming yillar mobaynida shakllangan ezgu g‘oyalar, bunyodkor mafkuralar, odamlarni faqat yaxshilik, o‘zaro hamkorlikka boshlovchi tarbiya tizimiga qarshi kurash ham yangi shakl va mazmunga ega bo‘lib bormoqda. Prezidentimiz “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston” kitobida qayd etganidek, “Yangi O‘zbekiston mafkurası — ezgulik, odamiylik, insonparvarlik g‘oyasidir. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlar barqarorligini tasavvur qilamiz. Ma‘naviy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgulik, umuminsoniy g‘oyalar ruhida voyaga yetkazish, ularla xalqimizning ma‘naviy va ma‘rifiy ideallarga yot bo‘lgan zararli ta‘sirlarga qarshi immunitetini kuchaytirish masalasi bugun har qachongidan ham dolzarbdir”.

➡ Davomi 5-betda

ISHONCH VA SHERIKLIKNI MUSTAHKAMLASH: O‘ZBEKISTON XALQARO TINCHLIK TASHABBUSLARIDA FAOL ISHTIROK ETMOQDA

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-dekabr kuni Ashxobodga amaliy tashrif bilan keldi. Davlatimiz rahbari Turkmanistonning doimiy betaraflik e‘lon qilinganining 30 yilligi, Xalqaro betaraflik kuni va 2025-yilni “Xalqaro tinchlik va ishonch yili” deb e‘lon qilinishiga bag‘ishlangan xalqaro forumda ishtirok etadi.

Ushbu muhim tadbir davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch, xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlash masalalarini muhokama qilish, profilaktik diplomatiya sohasida tajriba almashish uchun izlanuvchan platforma yaratadi.

Forum BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasi rezolyutsiyasi bilan e‘lon qilingan Xalqaro tinchlik va ishonch yilining kulminatsion voqeasidir. Turkmaniston tomonidan 86 davlat hammuallifligida tayyorlangan ushbu tashabbus siyosiy muloqotni mustahkamlash, mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro tushunish va ishonchni ilgari surish, global tinchlik va totuvlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qildi.

2025-yil yanvar oyida qabul qilingan Turkmaniston faoliyati konsepsiyasida Tinchlik va ishonch yiliga “Muloqot — tinchlik garovi” yangi xalqaro munosabatlari falsafasini amalga oshirish uchun amaliy maydon sifatida qaralmoqda.

Tinchlik va muloqot madaniyatini ilgari surish, xalqaro munosabatlarda

betaraflik rolini kuchaytirish, preventiv diplomatiya va vositachilikni rivojlantirish, davlatlar o‘rtasida ishonchning yangi mexanizmlarini yaratish, tinchlik va o‘zaro ishonchsiz barqaror rivojlanish mumkin emasligi to‘g‘risida global tushunchani shakllantirish “Xalqaro tinchlik va ishonch yili”ning asosiy maqsadlari etib belgilandi. Ushbu maqsadlarning amalga oshirilishi ishonch va mas’uliyatga asoslangan ko‘p tomonlama muloqotning yangi shakllarini institutsionalashtirish uchun imkoniyatlar ochdi. Shuningdek, davlatlar, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining qo‘shma tinchlik tashabbuslarida faol ishtirokini rag‘batlantirdi.

Bu borada Turkmanistonning 1995-yilda BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasi bilan tan olingan va keyingi 2015 va 2025-yillardagi rezolyutsiyalari bilan tasdiqlangan doimiy betaraflik siyosati alohida ahamiyatga ega. Betaraflik mamlakat konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlangan bo‘lib, Turkmaniston

tashqi siyosiy o‘ziga xosligining asosiy elementiga hamda mintaqaviy va xalqaro tinchlikka qo‘shayotgan hissasining asosiga aylandi. Betaraflikning asosiy tamoyillari harbiy-siyosiy ittifoqlarga kirishdan bosh tortish, qurolli mojaralarda ishtirok etmaslik, mamlakat hududida xorijiy harbiy kontingentlarni joylashtirish, xalqaro nizolarni hal qilishning diplomatik usullariga ustuvorlik berishdan iborat.

Betaraflikning amalda ro‘yobga chiqishi barcha davlatlar bilan teng huquqlilik, o‘zaro hurmat va ichki ishlarga aralashmaslik tamoyillari asosida barqaror diplomatik munosabatlarni qo‘llab-quvvatlash, qo‘shnilar va yirik davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro tashkilotlar bilan faol ishlashda namoyon bo‘lmoqda. Ashxoboddagi BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markazi faoliyati, Turkmanistonning BMTning barqaror rivojlanish, suv va energetika xavfsizligi, ekologiya va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikka qaratilgan gumanitar, ekologik va ijtimoiy tashabbuslarida ishtirok etishi bunga yaqqol misoldir.

O‘zbekiston ko‘p vektorli tashqi siyosatni rivojlantirib, konstruktiv mintaqaviy muloqotni qo‘llab-quvvatlab, Markaziy Osiyoda barqarorlik asosi sifatida tinchlik va ishonchni mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratmoqda. Mamlakatimiz strategiyasi ochiqlik, yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro hurmat va hamkorlikning barqaror shakllarini rivojlantirishga qaratilgan xalqaro tashabbuslarda faol ishtirok etish tamoyillariga asoslanadi. Ushbu yondashuvlar Xalqaro tinchlik va ishonch yili maqsadlariga to‘liq mos keladi hamda mintaqada xavfsizlik va barqarorlikning yagona makonini shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston — Turkmaniston munosabatlari ishonch va o‘zaro hurmatga asoslangan muvaffaqiyatli hamkorlikning

yorqin namunasidir. Mintaqada barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan Turkmanistonning umume‘tirof etilgan betarafligi, O‘zbekistonning hamkorlikni chuqurlashtirish, iqtisodiy va gumanitar aloqalarni rivojlantirish, madaniy aloqalar va transport infratuzilmasini mustahkamlashga qaratilgan faol va pragmatik pozitsiyasi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning yaqinda O‘zbekistonga amalga oshirgan davlat tashrifi ikki tomonlama hamkorlik formatini kengaytirish, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalaridagi yutuqlarni mustahkamlash imkonini berdi. Tashrif yakunida yetakchilar qo‘shma bayonot, savdo, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, transport, energetika, yuridik va madaniy sohalarini qamrab olgan qator davlatlararo bitim va hamkorlik dasturlarini imzoladi. Chegaraoldi hududlarining iqtisodiy integratsiyasi va mamlakatlar o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmini oshirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadigan ma‘muriy, bojxona va xizmat ko‘rsatish infratuzilmalari bilan jihozlangan “Shovot — Toshhovuz” chegaraoldi savdo zonasini ishga tushirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Shubhasiz, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ashxobodda bo‘lib o‘tadigan xalqaro forumdagi ishtiroki mamlakatimizning Markaziy Osiyoda va xalqaro maydonda tinchlik, ishonch va barqaror hamkorlikni mustahkamlashga sodiqligining yana bir tasdiqi bo‘ladi. Forum O‘zbekistonning ishonch va yaxshi qo‘shnichilik g‘oyalarni ilgari surishdagi faol rolini namoyish etish, mintaqa barqarorligi va farovonligi yo‘lida loyiha va tashabbuslarni birgalikda amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratib, O‘zbekiston — Turkmaniston sherikligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Dunyo” AA

Taqdimot

O‘ZBEKISTON: UCHINCHI RENESSANS — TARAQQIYOT KONSEPTI

Boshlanishi 1-betda

Kitobga Pokiston Bosh vaziri Muhammad Shahboz Sharif so‘zboshi yozgan hamda asarning bashariyat tamadduni istiqbolini anglashdagi ilmiy-mushohadaviy ahamiyatini alohida qayd etgan.

Muallifning ta’kidlashicha, kitobda jahon miqyosidagi davlat va siyosat arbobi Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasi ma’rifat, tinchlik va muloqot kabi qadriyatlariga asoslangan buyuk o‘zgarishlar loyihasi ekani ko‘rsatib berilgan. U, shuningdek, insoniyatni hamkorlikka chorlash, tinchlik va muloqot kabi qadriyatlarga asoslangan buyuk o‘zgarishlar loyihasi, vaqt izmiga bo‘ysunmas abadiy g‘oyalardan biri sifatida talqin etilgan.

Pokiston Bosh vaziri so‘zboshida kitob “bashariyat tamaddunining kelajakdagi rivojini teran anglab olishga qaratilgan izlanish va mushohadalarni o‘zida mujassam etgan asar” ekanini ta’kidlaydi. O‘zbekiston tajribasi Pokistonni ham kelgusida buyuk yangilanishlar, xayrli intilishlarga ilhomlantirish, kitob, shak-shubhasiz, bashariyat kelajagi, ma’rifatning qadr-qimmat va yangi jahon gumanizmini shakllantirishda Sharqning tutgan muhim o‘rni yanada yaqqol namoyon etib, istiqboldagi ulug‘ rejalarga o‘z hissasini qo‘shishiga ishonch bildiradi.

Bu Prezidentimiz g‘oyalari va global miqyosdagi qator tashabbuslarining yuksak e’tirofidir.

Davlatimiz rahbarining “Xayrli ish yaxshi niyatdan boshlanadi” degan so‘zlarini muallif “Chin ma’nodagi o‘zgarishlar insonning egzulik va adolatga xizmat qilish istagidan boshlanadi” deb talqin qilgan hamda bu ibora kitobning falsafiy asosini tashkil etgan.

Kitobda O‘zbekiston milliy davlatchilik rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga oid qator misollar keltiriladi. Kitobxon Samarqanddan Buxorogacha, Xivadan Toshkentgacha bo‘lgan bepoyon o‘zbek zaminini asrlar davomida madaniyatlar va savdo yo‘llari chorrahasi, Sharq ilmiy, falsafiy va ma’naviy tafakkurining yuragi bo‘lganini anglab oladi.

Asarning ilk taqdimoti joriy yil oktabrda Islomobodda bo‘lib o‘tgan edi. Unda taniqli siyosatshunos olimlar, tahlilchilar ushbu asar nafaqat o‘zaro tushunish manbasi, balki O‘zbekistondagi islohotlarni chuqur anglash kaliti bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlagan.

Pokistonlik siyosatchi va ilmiy ekspertlar fikricha, yozuvchi Muhammad Abbos Xonning ushbu asari va unda ilgari surilgan fikr hamda talqinlar nafaqat Pokiston, balki Yevropa va boshqa mamlakatlarda ham yuqori baholanmoqda.

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Xayriddin Sultonov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Kommunikatsiyalar departamenti rahbari — Prezident Matbuot kotibi Sherzod Asadov ishtirok etdi.

Rashid XO‘JAMOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

QORAQALPOQ QO‘BIZI VA O‘TOVI UNESCONING NOMODDIY MADANIY MEROS RO‘YXATIGA KIRITILDI

Qoraqalpoq qo‘bizini yasash va unda ijro etish san‘ati rasman UNESCONing Zudlik bilan muhofaza ostiga olinishi lozim bo‘lgan nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritildi.

Mazkur tarixiy qaror Hindiston poytaxtida bo‘lib o‘tgan UNESCO Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish hukumatlararo qo‘mitasining 20-sessiyasi ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan ma’qullandi.

Ushbu muhim voqea O‘zbekistonning maqsadli sa’y-harakatlari natijasi bo‘lib, Qoraqalpoq‘istonning noyob madaniy an‘anasi xalqaro miqyosda e’tirof etilganini yaqqol namoyish etmoqda.

Qo‘biz san‘ati O‘zbekistonning UNESCO ro‘yxatlariga kiritilgan madaniy meros elementlari sonini o‘n oltitaga yetkazdi. Bu esa mamlakatimizning qadimiy sivilizatsiya va boy madaniyatning xalqaro markazlaridan biri sifatidagi maqomini tasdiqlamoqda.

Qo‘biz qadimgi torli-kamonli musiqa asbobi bo‘lib, turkiy xalqlar, ayniqsa, qoraqalpoqlar, qozoqlar va qirg‘izlar orasida keng tarqalgan. Qoraqalpoq qo‘bizi an‘anaviy tarzda yaxlit yog‘ochdan (ko‘pincha tutdan) yasaladi. O‘ting yolidan qilingan ikkita torga ega bo‘lib, chuqur va betakror ohang hosil qiladi.

Jirov qoraqalpoq dostonchilari va shoirlaridir. Ular qo‘biz jo‘rligida dostonlar va tarixiy rivoyatlar ijro etadi. Jirovchilik an‘anasi qoraqalpoq xalqining tarixi, falsafasi va ma’naviy qadriyatlarini yetkazuvchi musiqiy va she’riy san‘atning noyob uyg‘unligidir.

Qo‘biz yasovchi ustalar va unda ijro etadigan sozandalar safining kamayib ketayotgani oqibatida ushbu san‘at elementining yo‘qolish xavfi mavjud. Shu sababli uni Zudlik bilan muhofaza ostiga olish ro‘yxatiga kiritish zarurati paydo bo‘lgan. Mutaxassislar ham mazkur noyob an‘anani kelajak avlodlar uchun saqlab qolish muhimligini alohida ta’kidladi.

Sessiya davomida “Muqaddas merosning qayta tiklanishi: qo‘biz va qoraqalpoq jirovlarining epik an‘anasi” mavzusida sayd-ivent bo‘lib o‘tdi. Dasturga ko‘ra, taniqli jirovlar Baqbergen Sirimbetov va Davronbek Yendirbayevning jonli ijrosi, qo‘biz va jirovga bag‘ishlangan hujjatli film namoyishi hamda usta Marat Jaqsimuratov tomonidan qo‘biz musiqa asbobi yasash jarayonining jonli ko‘rgazmasi namoyish etildi.

Shuningdek, 11-dekabr kuni Hindistonda bo‘lib o‘tgan ushbu sessiyada qoraqalpoq o‘tovini Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi representativ ro‘yxatiga kiritishga bag‘ishlangan masala ham muhokama qilindi.

Xalqaro ajunamada O‘zbekiston madaniy merosining o‘n yettinchi elementi — qoraqalpoq o‘tovi ham jahon miqyosida e’tirof etilib,



UNESCO Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Representativ ro‘yxatiga bir ovozdan qabul qilindi.

O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston ko‘chmanchi turkiy xalqlar uyi — o‘tovni UNESCOning Representativ ro‘yxatiga kiritish bo‘yicha qo‘shma nominatsiya taqdim etgan edi.

Qoraqalpoq o‘tovining UNESCO ro‘yxatiga kiritilishi butun O‘zbekiston, xususan, Qoraqalpoq‘iston Respublikasi uchun ulkan ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim voqeadir.

Qoraqalpoq o‘tovi o‘ziga xos ko‘rinishi, naqshlari va ramzlari bilan ajralib turadigan, qoraqalpoq xalqining dunyoqarashi, estetikasi va tabiiy turmush sharoitini aks ettiruvchi noyob xalq me’morchiligi namunasidir. Uning xalqaro miqyosda e’tirof etilishi milliy o‘zlikni saqlash va ommalashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur voqea O‘zbekiston rahbariyatining boy madaniy-gumanitar merosni xalqaro maydonda ilgari surish bo‘yicha izchil va muvaffaqiyatli sa’y-harakatlarining yorqin dalili bo‘ladi. Mamlakatimizning ochiqlik va jahon merosi namunalari saqlash tamoyillari yana bir bor namoyon etildi.

Qoraqalpoq o‘tovining ro‘yxatga kiritilishi so‘nggi yillarda O‘zbekiston va UNESCO o‘rtasida jadal rivojlanayotgan hamkorlikning yorqin samaralaridan. O‘zaro manfaatli sheriklik shu yil oktyabr-noyabr oylarida Samarqand shahrida bo‘lgan jahon UNESCO Bosh konferensiyasining

43-sessiyasidan so‘ng yangi bosqichga ko‘tarildi. Qoraqalpoq o‘tovi O‘zbekiston madaniy merosining UNESCOning turli ro‘yxatlariga kiritilgan o‘n yettinchi elementi bo‘ldi. Mamlakatimizning Buyuk ipak yo‘lidagi jahon sivilizatsiyasining asosiy markazlaridan biri ekanini tasdiqladi.

Ayniqsa, so‘nggi 7-8 yilda O‘zbekiston va UNESCO o‘rtasidagi samarali hamkorlik munosabatlari tashkilot ro‘yxatlariga bir nechta muhim nomoddiy va tabiiy madaniy meros elementlarining kiritilishiga olib keldi. O‘tovning UNESCO ro‘yxatiga kiritilishi nafaqat monumental yodgorliklarni, balki avlodlar avlodga o‘tib kelayotgan jonli an‘analar va ko‘nikmalarni, xalqning ishonchi va shuurini asrashga qaratilgan muvaffaqiyatli ishlarning uzviy davomidir.

Ushbu voqea Qoraqalpoq‘iston va butun O‘zbekistonning sayyohlik jozibadorligini oshirish, o‘tov tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi hunarmand-ustalarni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlar olib borish, an‘anaviy ko‘nikmalarni yosh avlodga yetkazish, uning boqiyligini ta’minlash uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Qoraqalpoq o‘tovining representativ ro‘yxatga kiritilishi mazkur tarixiy boylikning xalqaro e’tirofi va ko‘chmanchilik madaniyatining noyob ramzini saqlab qolish kafolati bo‘ladi.

“Dunyo” AA

Dehli shahri

Munosabat

Pokiza AHMADJONOVA, Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati kengashi raisi, senator

“Inson qadri uchun” ezgu tamoyili asosida kechayotgan islohotlar samarasi Sirdaryodagi ulkan o‘zgarishlarda ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Shu ma’noda aytish mumkinki, davlatimiz rahbarining Sirdaryo viloyatiga tashrifi hududni bugungidan-da ulkan bunyodkorlik maydoniga aylantirish, sirdaryoliklar hayotiga yangicha mazmun, oilasiga fayz, turmushiga farovonlik olib kirishga zamin yaratishi bilan ahamiyatli bo‘ldi.

Bundan 10 yil oldin viloyatimiz mamlakatning eng qo‘lqo‘l hududlaridan biri sifatida tilga olinardi. Aslida ham shunday edi-da. Chunki viloyat iqtisodiyoti uzoq yillar paxta va g‘allaga bog‘langandi. Noto‘g‘ri yuritilgan agrar siyosat sabab yerning katta qismi sho‘rlanib, yaroqsiz holga kelib qolgandi. Fermerlar ko‘p mehnat qilib, kam daromad olar, sug‘orish infratuzilmasi eskirgan edi.

Xalqning asosiy daromadi yerdan bo‘lsa-da, unumdorlik yildan yilga pasayib borar, maqsadli investitsiyalar, oqilona boshqaruv va iqtisodiyotni tiklaydigan g‘oya va loyihalar bo‘lmagach, odamlar kechiklangan, hamingqadar imkoniyatlarga ko‘nib yashashga majbur edi.

2016-yildan keyin boshlangan yangi siyosiy davr, iqtisodiy dastur va islohotlar Sirdaryoni mullaqo boshqa rivojlanish bosqichiga olib chiqdi.

“Davlatimiz rahbari bu hududni yangi imkoniyatlar maydoni sifatida belgilab, uni amalda yo‘qdan bor qilish, sanoat, qishloq xo‘jaligi va logistika markaziga aylantirish vazifasini qo‘ydi. Eng muhimi, bu o‘zgarishlarning markazida inson manfaati, inson qadri turdi.

Sirdaryoning har bir tumani, har bir qishlog‘ida yangilanish, avvalo, odamlar hayotini yengillashtirish, tadbirkor uchun keng yo‘l ochish, yoshlar uchun imkoniyat yaratishdan boshlandi.

Bir galgi tashrif doirasida Prezidentimiz sanoat korxonalari faoliyati, mahallalardagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi

hamda Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasida ishtirok etib, hududni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Asosiysi, viloyatni yanada rivojlantirish, aholi va tadbirkorlarning og‘irini yengil, uzog‘ini yaqin qilish bo‘yicha katta reja va maqsadlar belgilandi.

Qayd etilganidek, aholi bandligini ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha yangicha yondashuvlar, samarali yechimlarni joriy etish uchun doim izlanish, o‘rganish, tajriba o‘rttirish muhim.

Viloyatimizga oxirgi sakkiz yilda 4 milliard dollar investitsiya kiritildi, 120 mingdan o‘rtiq ish o‘rni yaratildi. Shu davr mobaynida 187 ta yirik quvvat ishga tushirildi. 50 ga yaqin yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Natijada sanoat hajmi 4 trilliondan 25 trillion so‘mga yetdi.

Davlatimiz rahbari tomonidan kelgusida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan masalalar atroficha muhokama qilinib, taklif va tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, Prezidentimiz kelasi yillar davomida viloyatga jami 3 milliard dollar investitsiya kiritish, eksport hajmini 500 million dollarga yetkazish, 185 ming aholini ish bilan ta’minlash bo‘yicha qat’iy ishlash zarurligini ta’kidlab, Sirdaryoni rivojlantirish bo‘yicha aniq vazifalarni belgilab berdi.

Kelgusi yilda viloyat infratuzilmasini yaxshilashga 1,5 trillion so‘m, tadbirkorlik loyihalari uchun 10 trillion so‘m resurs ajratish rejalashtirilgani, shuning 753 milliard so‘m il bor Sirdaryo viloyati va tuman budgetlariga mahallalar sharoitini yaxshilash uchun yo‘natilgan davlatimiz rahbarining o‘zgarishlar, avvalo, mahallalarda sezilishi kerak degan so‘zlarining amaldagi isboti bo‘ldi.

Bu haqda Prezidentimiz “Mahalla — jamiyatning yuzi. Mamlakatdagi



barcha o‘zgarishlar, avvalo, shu yerda o‘z ifodasini topadi. Biz shunday tizim yaratdik, ilgari jiddiy deb hisoblagan ko‘plab masalalarimizga yechimni anyan mahallaning o‘zida topaypmiz. Bu institutga e’tiborni yanada kuchaytirishda davom etamiz”, dedi.

Yig‘ilishda tadbirkorlar uchun qator yangiliklar, qulaylik va imtiyozlar yaratish borasida so‘z bordi. Jumladan, Toshkent shahridagi sanoat korxonalarini bosqichma-bosqich poytaxtdan tashqariga ko‘chirish jarayonida “Sirdaryo” erkin iqtisodiy zonasidagi bo‘sh yerlar mavjud quvvatlarini joylashtirish uchun katta imkoniyat ekani ta’kidlandi. Shu bois, poytaxtdan o‘z korxonasini Sirdaryoga ko‘chirish istagida bo‘lgan tadbirkorlarga sanoat zonasidagi yerlar soddalashtirilgan tartibda, chegirma bilan taqdim etiladi, ularga 10 milliard so‘mgacha imtiyozli kredit ajratiladi, xomashyoni temir yo‘l orqali tashishda arzonlashtirilgan tariflar qo‘llanadi.

Prezidentimiz Sirdaryoda bog‘cha, maktab, shifoxona o‘rinlarini ko‘paytirish, elektr, suv, kanalizatsiya va yo‘llarni yaxshilash borasidagi ishlarga ham to‘xtaldi. Ayni maqsadda viloyatimizga birgina joriy yilning o‘zida aholi turmush sharoitini yaxshilash uchun 100 million dollar resurs yo‘natildi. Natijada 47 ta maktab, 45 ta bolalar bog‘chasi, 31 ta tibbiyot muassasasi, 5 ta sport va madaniyat maskani tubdan ta’mirlanib, zamonaviy jihozlar bilan ta’minlandi. Bu ishlar izchil davom ettirilib, kelasi yili yana 100 million dollar ajratilishi e‘lon qilindi.

Bir so‘z bilan aytganda, davlatimiz rahbari tashrifiga qo‘shilib, Sirdaryoga yangi tashabbuskorlik ruhi, tadbirkorlik shijoati, keng imkoniyatlar manbai keldi.



ENERGETIKA –

IQTISODIYOTNI HARAKATLANTIRUVCHI

QUVVAT MANBAI

Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Tanamizdagi qon har bir ichki organ uchun quvvat manbai vazifasini bajargani kabi energetika iqtisodiyotning eng muhim jabhalari – og‘ir va yengil sanoat, xizmat ko‘rsatish, qishman qishloq xo‘jaligini harakatlantiruvchi quvvatdir. Boshqacha aytganda, energetika tizimi nafaqat iqtisodiyot, balki insoniyat farovonligi bilan chambarchas bog‘liq tarmoqlar rivoji, barqaror taraqqiyoti asosidir. “Yashil” energetika esa bu quvvatning ortib borishi, uzviyligini ta‘minlashi bilan yanada ahamiyatli.

Birgina misol, uyida chiroq bo‘lmasa, hech qaysi maishiy jihozni ishlata olmaymis. Xonalar zimistonligi qalbingizga ko‘chib, umidsizlik, g‘am-tashvish va xavotir uyg‘otadi.

Shu bois, ushbu sohadagi islohotlar davlat iqtisodiyoti mustahkamlanishi, ijtimoiy hayot yaxshilanishi, aholi daromadi va turmushi sifatini oshiradi. Davlat va jamiyatda yorqin kelajakka ishonch tuyg‘usini kuchaytiradi. Yangi O‘zbekistonni barpo etishda barqaror energetika quvvatiga ega bo‘lishga alohida urg‘u berilayotgani boisi ham shu, aslida.

Joriy yil 5-dekabr kuni Prezidentimiz boshchiligidagi yangi energetika quvvatlari va infratuzilma obyektlari ishga tushirilgani hamda navbatdagilarining qurilishini boshlashga start berilgani bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi deb bemaol aytish mumkin.

Qator xalqaro tashkilotlar vakillari, hamkor davlatlar mas‘ullari, jumladan, Birlashgan Arab Amirliklari energetika va infratuzilma vaziri Suhayl al-Mazruiy, Turkiya energetika va tabiiy resurslar vaziri Alparslan Bayroqdor, Ozarbayjon energetika vaziri Parviz Shahbozov, Qirg‘iziston energetika vaziri Taalaybek Ibrayev, shuningdek, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki, Islom taraqqiyot banki va boshqa moliya institutlari, dunyoning yirik tarmoq kompaniyalari rahbarlari, investorlar ishtirokidagi anjuman “Barqaror energetika — Yangi O‘zbekistonning kelajak sari ishonchli qadami” mavzusida bo‘lib o‘tiganida ham chuqur ma‘no-mazmun bor.

Zero, anjuman doirasida qariyb 11 milliard dollarlik 42 ta energiya ishlab chiqarish, saqlash quvvatlari va boshqa infratuzilma inshooti ishga tushirildi, navbatdagi 21 tasining qurilishi boshlanishiga start berildi.

O‘tgan yili 14-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan xuddi shunday tadbirda davlatimiz rahbari ishtirokidagi energetika sohasida 18 ta yangi quvvat ishga tushirilib, 6 ta loyiha qurilishi boshlangan edi. Bir yilda qamrovning qanchalik kengayganini raqamlar o‘rtasidagi farqdan ham anglash mumkin.

Albatta, bunda 2025-yilning mamlakatimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” deb e‘lon qilinishi hamda yilga doir davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosi katta zamin yaratdi. Jumladan, dastur doirasida “yashil” energetikani joriy etish borasida yangi tashabbus, loyiha va natijador mexanizmlar yo‘lga qo‘yildi.

Bularning barchasi oldimizdagi yuksak marra — 2030-yilgacha qo‘shimcha 17 ming megavattdan ortiq qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari ishga tushirilishi, natijada “yashil” energiyani jami generatsiyadagi ulushi 54 foizga yetkazilishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

EKOLOGIK MUVOZANAT,
MUSTAHKAM SUVERENITET
KAFOLATI

“Yashil” energetika zamonaviy jamiyatning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Uning taraqqiyoti quyidagi jihatlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Birinchidan, ekologik nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, an‘anaviy energiya manbalari, xususan, neft, ko‘mir va gaz yoqilg‘isi atmosferaga zararli gazlar chiqaradi. “Yashil” energetika esa bunday ifloslanishning oldini oladi va uglerod chiqindilarini kamaytiradi.

Masalan, 5-dekabr kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida ishga tushirilgan umumiy qiymati 3,3 milliard dollarlik loyihalar orasida 3500 megavattli 16 ta quyosh, shamol, issiqlik stansiyasi va GESlar bor.

Ular to‘liq quvvatga chiqqach, mazkur obyektlarda yiliga 15 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Natijada kelgusi yilda “yashil” energetika ishlab chiqarish hajmi 23 milliard kilovatt-soatga yetadi. Ushbu quvvatlar orqali O‘zbekiston aholisining yillik elektr energiyasi iste‘moli to‘liq qoplanishiga erishiladi.

Shuningdek, toza energiya hisobiga tabiiy gaz sarfi salkam 7 milliard kub metr ga kamayadi. Atmosferaga 11 million tonna zararli moddalar chiqishining oldi olinadi. Bu esa global isish va ekologik muammolarning oldini olishga yordam beradi.

Ikkinchidan, ko‘pgina davlatlar neft va tabiiy gazga qaram bo‘lib, ularni import qilishga majbur. Ayniqsa, qahraton qish kunlarida elektr

Tahlil

minglab oilalar farovonligi ta‘minlanadi degani.

Shuningdek, yurtimizning eksport mahsulotlariga “yashil” energetika degan yangi mahsulot qo‘shilmoqdaki, bundan keladigan qo‘shimcha mablag‘ milliy iqtisodiyotimiz yanada barqarorlashishiga xizmat qiladi. Jumladan, bu borada qo‘shni Qozog‘iston, Ozarbayjon bilan hamkorlikda Yevropaga elektr energiyasi eksport qilish uchun “yashil yo‘lak” loyihasi tayyorlanmoqda. Loyiha Bokudagi COP-29 sammitida imzolangan kelishuv asosida amalga oshirilmoqda. Loyiha doirasida Kaspiy va Qora dengiz ostidan kabel tortish orqali Yevropaga “yashil strategik yo‘lak” barpo etilib, “yashil” energiya eksport qilinishi ko‘zda tutilgan. Hozirgi kunda Italiya kompaniyasi tomonidan dastlabki texnologiyalar ishlab chiqarilmoqda.

Islohotlar tizgini qo‘shni davlatlar bilan yagona energetika bozorini yaratish yo‘lidan bormoqda. Bu dunyo energetika bozorida Markaziy Osiyo o‘zining yirik o‘miga ega bo‘lishini bildiradi.

To‘rtinchidan, dunyo bozorida “yashil” sertifikatga ega mahsulotlar, boshqacha aytganda, tabiatga zarar yetkazmasdan olinayotgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobiga tayyorlangan yoki yetishtirilgan eksport tovarlari ustun mavqega ega.

Qolaversa, “yashil” rivojlanish tannarxni kamaytirishda muhim omil hamdir. Shu ma‘noda, yuqorida sanaganimiz kabi loyihalar hisobiga mamlakatimizda “yashil” energetika



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

foydalanish har qachon muhim bo‘lgan. Shu bois, tarixda turli nizolar bo‘lishiga qaramay, xalqlarimiz suvdan kelishilgan holda foydalanagan.

Prezidentimiz tashabbusi va qo‘shni mamlakat rahbarlari xayrixohligi bilan bugun bu mintaq o‘z tarixidagi eng totuv, ahil, o‘zaro manfaatli hamkorlik davriga qadam qo‘ydi.

Tashbeh bilan aytganda, bugun suv, tuz-nonimiz bir dasturxon ustida baham ko‘rilmogda. Mushki kabi birlashgan davlatlarimiz dunyoga bo‘linmas mintaq, katta ijtimoiy-iqtisodiy qudrat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunga yuqoridagidek turli yo‘nalishlardagi o‘zaro manfaatli hamkorligimiz asos bo‘lib xizmat qilayotir.

Xususan, gidroenergetika tarmog‘idagi hamkorlik ham davlatlarimiz uchun muhim yo‘nalishdir. Bu boradaminatagididroenergetika salohiyatidan samarali foydalanib, birgalikda boshqarish maqsadida kelgusi yili Qirg‘iziston

natijalarga erishilmoqda. Jumladan, shu yilning o‘zida 17 ta yirik sanoat korxonasi “yashil” energetika bo‘yicha xalqaro sertifikatlar tizimiga o‘tdi. Kelgusi ikki yilda bunday korxonalar sonini 100 taga yetkazish belgilangan.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, birgina o‘tgan yilning o‘zida tabiiy ofatlar dunyo miqyosida 320 milliard dollarlik global iqtisodiy yo‘qotishlarga sabab bo‘lgan. E‘tibor qaratish kerak bo‘lgan jihati, bu ko‘rsatkichlar 2023-yilgidan 30 foiz baland.

Raqamlardan dunyo miqyosida global ekologik muammolar yil sayin keskinlashib borayotganini anglash mumkin. Shu bois, rivojlangan mamlakatlar sanoat, ishlab chiqarish sohasida atrof-muhitga zararsiz, nol uglerod chiqindisini hosil qiladigan qayta tiklanuvchi muqobil energiya manbalaridan foydalanish borasida turli loyihalarni amalga oshirmogda.

Ilgari energiya yetishmovchiligi O‘zbekistonning eng asosiy og‘riqli masalalaridan biri, zaif tomoni edi, xorijlik investorlar bilan manfaatli hamkorlik asosida energetika tarmog‘ida amalga oshirilayotgan islohotlar esa bu zaiflikni katta qudratga yo‘g‘riltirmogda.

va Qozog‘iston bilan “Qambarota GES-1” loyihasini moliyalashtirishga kirishilishi belgilandi.

Zero, O‘zbekiston elektr energiyasi quvvatining katta qismini gidroenergetika tashkil etadi. Shu bois, soha biz uchun muhim. Xorijiy investorlar ko‘magida bu tarmoq ham keyingi yillarda taraqqiy etib bormogda.

Joriy yilda 400 megavattli gidroelektr stansiyalar ishga tushirildi. Jumladan, Norinda 38 megavattli ilk gidroelektr stansiya to‘liq mahalliy mahsulotlardan foydalanigan holda qurildi. Ushbu istiqbolli loyiha yiliga o‘rtacha 1025 million kilovatt-soat ekologik toza elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega.

YUZDAN ORTIQ KORXONA
XALQARO SERTIFIKATGA EGA
BO‘LADI

O‘zbekistonda Jahon banki bilan hamkorlikda dunyoda ilk innovatsion “iCRAFT” loyihasi ishga tushirildi va katta

Shu o‘rinda yaqinda Braziliyada o‘tgan COP-30 iqlim konferensiyasida mamlakatimiz o‘z tashabbusi bilan Parij bitimi doirasida muhim majburiyatni zimmasiga olganini alohida qayd etishimiz joiz. Unga ko‘ra, O‘zbekistonda 2035-yilgacha zararli gazlar emissiyasi 50 foiz qisqartirilishi maqsad qilindi.

Avvalo, Parij bitimi haqida to‘liqroq ma‘lumot bersak. Ushbu bitim atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan. 2016-yildan kuchga kirgan hujjat dunyoning 195 mamlakati tomonidan ma‘qullangan, 175 davlat uning tadbirlari doirasida ish olib bormogda.

Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi davlatlari bitim doirasida turli loyihalarni amalga oshiryapti. Shulardan biri “Fit for 55” paketi. Uning “Carbon Border Adjustment Mechanism” (“CBAM”) uglerod chegarasini sozlash mexanizmi) qismida xalqaro tijorat, mahsulotlarni import-eksport qilish, investitsiyalar kiritish masalalari qayd etilgan. Unga ko‘ra, Yevropa Ittifoqiga import qiluvchilar mahsulot ishlab chiqarilishida hosil bo‘lgan uglerod hisobotlarini berishi va bu chiqindilarni uchun alohida to‘lov qilishi kerak.

Yuqorida qayd etilgan “yashil” energetika bo‘yicha xalqaro sertifikatlar va qo‘shimcha to‘lovlar majburiyatini bekor qiladi. Shu bois, JSTga a‘zo bo‘lish, dunyo bozorida o‘z mahsulot va brendlari bilan alohida o‘rin egallash, eksport salohiyatini yanada oshirishni maqsad qilgan O‘zbekiston uchun “yashil

iqtisodiyot”ga o‘tish muhim ahamiyat kasb etadi.

BOSH MAQSAD — INSON
QADRINI ULUG‘LASH

Prezidentimiz faoliyatining ilk pallalaridayoq islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad odamlarni rozi qilish, inson qadriini ulug‘lash ekanini aytgandi. Iqtisodiy tarmoqlardagi yangilanishlar ham xuddi shu maqsad yo‘lida kechdi. Bu, ayniqsa, aholini elektr energiyasi bilan uzluksiz ta‘minlashda yaqqol namoyon bo‘ldi. Ilgari sovuq kunlarda muayyan soatlarga elektr beriladigan markazdan olib qishloqlarda ham ta‘minot ancha yaxshilandi.

Esimda, bolalik yillarim tunlari sham yorug‘ida dars qilishga majbur bo‘lardik. Elektr ta‘minotidagi surunkali uzilishlar tufayli qish kunlari ko‘rpa ostidan chiqolmasdik.

Bugun yangicha mexanizm, tashabbus va loyihalar hisobiga aholini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta‘minlashda sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgani bor gap. E‘tiborlisi, bu maqsad yo‘lidagi ortga qaytmas islohotlar tizimli davom ettirilmoqda. Zero, Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, “Bugun jadal sur‘atlarda o‘sib borayotgan iqtisodiyotimiz va aholining talab hamda ehtiyojidan kelib chiqib, energetika tizimida katta islohotlarni amalga oshiryapmiz. Biz bu yo‘nalishda ikkita muhim maqsadga erishishni asosiy vazifa qilib belgilaganmiz. Birinchisi — barcha tarmoq va hududlar uchun ishonchli va uzluksiz energiya ta‘minotini yo‘lga qo‘yish. Ikkinchisi esa ana shu ramizni zamonaviy, ekologik toza va qayta tiklanuvchi muqobil manbalar hisobidan amalga oshirishdir”.

5-dekabr kuni aholini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta‘minlash maqsadida ishga tushirilgan loyihalar qatorida “Angren Energo” va “Uzhydropower” korxonalari ham bor. “Angren Energo” yiliga 15 mingta transformator ishlab chiqarish, “Uzhydropower” esa 155 ta gidroagregat tayyorlab berish quvvatiga ega. Bundan ko‘rinadiki, har ikki korxona ham iqtisodiyotimiz rivoji hamda aholi farovonligiga muhim hissa qo‘shadi.

Umuman olganda, 5-dekabr kuni ishga tushirilgan yangi energetika quvvatlari va infratuzilma obyektlari hamda qurilishi boshlangan yangi loyihalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati juda katta.

Joriy yil davomida ushbu yo‘nalishda juda ko‘p bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Jumladan, xususiy sektor, aholi xonadonlari va ijtimoiy soha obyektlarida 2 ming megavattli kichik quyosh panellari o‘rnatildi. Ularda shu yilning o‘zida qo‘shimcha ravishda 2 milliard kilovatt-soatga yaqin muqobil energiya ishlab chiqarildi. Shuningdek, 69 ming kilometr elektr tarmog‘i, 14 mingta transformator va yuqori kuchlanishli podstantsiya yangilandi.

Bu yo‘nalishda yana bir yangicha mexanizm joriy etildi. Samarqand hududiy elektr tarmoqlari Turkiyaning “Aksa Elektrik” kompaniyasiga xususiy boshqaruvga berildi. Ushbu kompaniya loyiha doirasida tarmoqni operatsion boshqaruvga olib, investitsiya kiritadi, tarmoqlarni modernizatsiya qiladi, yo‘qotishlarni bosqichma-bosqich 2 barobar kamaytiradi. Natijada har yili o‘rtacha 20 million dollar tejalandi.

Shunday tajriba asosida kelgusi yilda Jizzax va Sirdaryo, 2027-yilda Namangan va Toshkent viloyatlari elektr tarmoqlari boshqaruvi ham investorlarga taklif etilishi belgilandi.

Bir so‘z bilan aytganda, ilgari energiya yetishmovchiligi O‘zbekistonning eng asosiy og‘riqli masalalaridan biri, zaif tomoni edi, xorijlik investorlar bilan manfaatli hamkorlik asosida energetika tarmog‘ida amalga oshirilayotgan islohotlar esa bu zaiflikni katta qudratga yo‘g‘riltirmogda. Bunda, albatta, Prezidentimizning oqilona siyosati hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotir. Buni biz emas, xalqaro tashkilotlar vakillari ham e‘tirof etmogda.

Xususan, 5-dekabrdaqi tatanali marosimda Saudiya Arabistonining “ACWA Power” kompaniyasi boshqaruvi raisi Muhammad Abunayyan O‘zbekistonning investitsiyalarni jalb qilish va energetika sohasidagi faoliyatini yuksak baholab, davlatimiz rahbariga nisbatan “Butun dunyo investorlar bilan ishlashni sizdan o‘rganishi kerak”, deya ta‘kidlaganini keltirish mumkin. Shuningdek, avvalroq, Osiyo taraqqiyot banki rahbari Masato Kanda Italiyadagi yirik moliyaviy anjumanlardan birida O‘zbekistonni xususiy investitsiyalar hisobiga energetika sohasini muvaffaqiyatli transformatsiya qilayotgan namunali davlatlardan biri sifatida e‘tirof etganini ham qayd etish joiz. Ushbu e‘tirolar biz to‘g‘ri yo‘ldan borayotganimiz, yangi O‘zbekistonni barpo etishda yangi uqlarni kashf etayotganimizdan darak beradi.



energiyasini turli og‘ir shartlar va qimmat narxlarda sotib olishga to‘g‘ri kelayotgan mamlakatlar qancha? Bu esa mamlakatning ham iqtisodiy, ham siyosiy tizimiga zarar keltirib, ayrim hollarda suverenitetiga soya soladi.

Yangi ishga tushirilgan loyihalar orasidagi 1245 megavattli 10 ta energiya saqlash tizimi eng qiyin vaziyatlarida davlat va jamiyat ehtiyojlarini qondirishda katta ahamiyatga ega. Bu energiya eng ko‘p iste‘mol qilinadigan tig‘iz vaqtlarda qo‘shimcha 1,5 milliard kilovatt-soat elektr energiyasini tarmoqqa uzatish imkonini beradi. Energiya saqlash tizimi hamda “yashil” energetika manbalari rivoji yurtimizning energetik mustaqilligini ta‘minlaydi va resurslar bo‘yicha iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlaydi.

Uchinchidan, “yashil” energetika manbalarining milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi o‘rni ham beqiyos. Jumladan, “yashil” energetika sohasi tobora kengayib, yangi texnologiya va innovatsiyalar bilan birga ko‘plab ish o‘rinlarini yaratmoqda. Masalan, quyosh panellari ishlab chiqarish, shamol turbinalari o‘rnatish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish kabi yo‘nalishlar paydo bo‘lyapti. Bularning barchasi — mutaxassis tayyorlashdan boshlab, ularning faoliyat yuritishigacha, minglab yangi ish o‘rinlari, demakki, barqaror daromad hisobiga

rivojlanishi dunyo bozorida “O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” yorlig‘i ostidagi mahsulotlar raqobatbardoshligini sezilarli oshiradi.

SUVIMIZ, NIYATIMIZ
BIR, AMALIMIZ HAM
BIRLASHMOQDA

Markaziy Osiyo mintaqasining asosiy suv manbasi Amudaryo va Sirdaryodir. Ushbu katta suv o‘zanlari mintaqadagi barcha davlatlar hududidan oqib o‘tadi. Undan hamjihatlikda





BIR PARCHA YERDAN TOG'DAY XIRMON

Rishton tumanidagi Qayrag'och mahallasida kuzgi sholg'om, turp, sabzi, qizil lavlagi singari sabzavot ekinlari yig'im-terimi avji pallada. Mahsulotning bozori chaqqon. Bir kilogramm turp va sholg'om ulgurji narxda 1500-2000 so'mdan sotilmoqda. Dehqonlar o'n sotix yerdan o'rta hisobda 20 tonna hosil yig'ib olmoqda. Shu hisobdan daromad cho'g'ini chamalash qiyin emas.

Qadimiy go'shalardan bir bo'lgan bu zamin kuzgi sabzavot yetishtirishda o'ziga xos an'ana, tajribaga ega. Qishloq odamlari avvallari ham shu yo'nalishda mehnat qilgan, izlangan. Ammo ming mashaqqat bilan yetishtirilgan hosil uchun erkin bozor yo'q edi. Mahsulotlar faqat ichki bozorlarda sotilgan. Hosildorlik, manfaatdorlik salmog'i ham shunga yarasha bo'lgan.

Keyingi yillarda agrar sohani isloh qilish va bozor talablariga moslashtirish borasida qator ishlar bajarildi. Jumladan, intensiv usulda hosil yetishtirish, suv resurslaridan samarali foydalanish, istiqbolli navlar tanlashga alohida e'tibor berila boshlandi. Bu dehqon va tomorqachilar hayot tarzini o'zgartirdi. Tomorqadan bir emas, ikki-uch marta hosil olish, bug'doydan bo'shagan maydonlarda takroriy ekin yetishtirish tajribalari ommalashdi. Mahallada bo'lgan kishi e'tiborini har bir xonadonda saralab, qadoqlab qo'yilgan sarxil sabzavot mahsulotlari tortadi.

— Hormanglar, xirmonga baraka, — deya shundoq yo'l yozasida, yuk mashinalariga mahsulot ortayotgan mirishkorlar oldida to'xtadi. Ishchilar yuvib, saralangan turp va sholg'omni 3 kilogrammdan maxsus xaltalarga qadoqlab berish bilan andamon. Biz fursatini topib, ularni gurungga tortamiz.

— Ayni kunda dastlabki 100 tonna sabzavotni xorijga eksport qilishga hozirlik ko'ryapmiz, — deydi "Vodiy gulchehra baraka" fermer xo'jaligi rahbari Sherali Mirzaqodirov. — Avval mahsulotlarni katta qoplar, yog'och qutilarga joylab, mijozlarga yetkazib berardik. Endi dunyo bozori talab va taklifini hisobga olib, sabzavotlarni kichik miqdorda qadoqlab beryapmiz. Bu mahsulot manzila sifatli yetib borishini ta'minlaydi. Xaridorlar uchun ham qulay. Istiqbolli loyihalarimiz doirasida xorijga umumiy qiymati 5 million dollarlik sabzavot va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish uchun shartnomalar imzolaganmiz.

Nozimjon Hakimov bu yil o'tiz yoshga to'ldi. Yosh bo'lsa-da, dehqonchilikda ko'pga ibrat bo'lib kelmoqda. U o'n sotix tomorqasidan mavsumda 2-3 marta hosil yetishtiradi. Bundan tashqari, bug'doydan bo'shagan yerdan ijaraiga joy olib, sabzavot ekib, ro'zg'or tebrataypti. Kech kuzning qirovida obdan pishgan sabzavot ekinlarining ta'mi mazali bo'ladi. Qolaversa, uzoq vaqt xususiyatini yo'qotmay saqlanadi. Nozimjon uchun bu yilgi mavsum ham salmoqli bo'ldi. To'rt gektarga turp, ikki gektarga sabzi ekdi. Bugun daladan to'g'ri eksport qilina-yotgan mahsulotlar bozori chaqqon.

Egatlar oralab borayotgan Nozimjon ko'k mag'izli turplardan birini olib archishga tushdi. Aytganicha bor ekan, sabzavotning ta'mi o'zgacha, suvli, mazali.

— Xomxayol gaplarga ishonib, xorijga ishlagani borib, 4 oyda qaytib kelganman, — deydi yosh dehqon. — Ishlayman deganga shu yerda ham sharoit va imkoniyat yetarli.

Dastlabki hisob-kitobimizga ko'ra, shu mavsumda 500 million so'mdan ko'p daromad olamiz. Bunga osonlik bilan erishib bo'lmaydi, albatta. Shu maqsadda dehqonchilikda ilmiy yondashish, serhosil, tez-pishar urug' tanlash, qo'l mehnati va boshqa xarajatlarni kamaytirishga e'tibor qaratganmiz. Masalan, shu kungacha urug'ni chetdan sotib olganmiz. Endi o'zimiz tayyorlaymiz. Avval urug'ni qo'lda separedik. Hozir zamonaviy seyakalardan foydalanaymiz. Bu urug' sarfini teng yarmiga

ko'klamga qadar davom etishi inobatga olinsa, amaliy ishlar salmog'ini hisoblash qiyin emas.

Hayotxon Husanova boquvchisi yo'q, kambag'al oilalar reyestriga turadi. Unga subsidiya asosida bir sotix issiqxona qurib berildi. "Xoliqjon Sultonov" fermer xo'jaligiga ishga joylashdi. Qolaversa, tomorqasidan bu mavsumda 6 tonnadan ko'p kuzgi sabzavot yig'ib oldi.

— Turmush o'trog'im vafot etganda balog'atga yetmagan 4 farzandim, vasiylikka olgan nabiram bilan yolg'iz qolganman, — deydi



qisqartirdi. Unumdorlikni oshirib, mahsulot tanaxxirini arzonlatdi.

Bu yerda sabzavotlarni saralash, qadoqlash ishlariga har kuni 20 dan ortiq mavsumiy ishchi to'kinlik olib kirdi. Ro'zg'ordan ortganiga mol-qo'y olib boqaymiz. Qizlarimni turmushga uzatdim, o'g'lim Farg'ona davlat universitetiga o'qishga kirdi. Bitta oilaga bundan ortiq yana nima kerak?!

Hayotxon. — Kambag'al oilalar bandligini ta'minlash, qo'llab-quvvatlash yo'lida berilgan imtiyoz va imkoniyatlar oilamizga farovonlik, to'kinlik olib kirdi. Ro'zg'ordan ortganiga mol-qo'y olib boqaymiz. Qizlarimni turmushga uzatdim, o'g'lim Farg'ona davlat universitetiga o'qishga kirdi. Bitta oilaga bundan ortiq yana nima kerak?!

Mahallada aholi tomorqasining 92 gektarida va fermerlarning g'alladan bo'shagan 800 gektardan ko'p maydonida kuzgi sabzavot yetishtiriladi. Umumiy sig'imi ming tonna bo'lgan 3 ta mahsulot saqlash ombori qurildi. Bu sarxil mahsulotlarni yil davomida bozorga chiqarish imkonini beryapti. Har yili jami 4 ming tonnadan ko'p sabzavot yetkazib berilmoqda. Natijada mahalla ishsizlik, kambag'allikdan xoli hududga aylandi. Shu kungacha yil avvalida kambag'allik reyestriga kiritilgan 40 ta oila kambag'allikdan chiqdi. Jitmoiy himoya daftarida turgan xotin-qizlar, mehnat migratsiyasidan qaytgan 71 kishiga ijara asosida ekin maydoni ajratib berildi. Bu yerda kooperatsiya asosida "Bir kontur — bir mahsulot" tamoyilida ertagi va kuzgi sabzavot yetishtirish ommalashdi.

— Joriy yilda "Har bir oila — tadbirkor", "Mening mahallam", "Biznesga birinchi qadam" loyihalari doirasida 15 narif tashabbuskor fuqaroga 850 million so'mdan ortiq imtiyozli kredit olishga ko'maklashdik, — deydi mahalladagi hokim yordamchisi Hasanboy Qo'chqorov. — Yaqingacha barmoq bilan sanarli xonadon tomorqa xo'jaligi va issiqxonalarda sabzavot ekiladi. Bugun 300 dan ortiq xonadonda issiqxona bor. O'tgan yilda bu maqsadlar uchun 115 million so'mdan ko'p kredit berildi. Mahallamizda tomorqani sug'orish uchun suv yetishmasdi, muammoga yechim topildi. Besh kilometr uzoqdan yangi suv tarmog'i tortildi. Shu mavsumda 350 dan ortiq xonadon tomorqasi suv bilan ta'minlandi. Aholi tomorqasi va boshqa ekin yerlaridan samarali foydalanishga qaratilgan islohotlar dehqonlar tafakkurini o'zgartirdi. Bu esa aholi turmush darajasini yaxshilab, hududlar obodligiga xizmat qilyapti.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Ta'lim islohotlari



Shavkat HASANOV,
Samarqand agroinovatsiyalar va tadqiqotlar instituti rektori, professor

Rivojlangan davlatlardagi oliy ta'lim muassasalarida talabgorlar "ochiq universitet" tamoyili asosida o'qitiladi. Bizda ham sirtqi ta'lim shakli tugatilgach, korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarni ushbu tamoyil asosida o'qitishga ehtiyoj ortmoqda. Chunki xodimlar o'z kasbini yanada mukammal o'rganishni istaydi.

"OCHIQ UNIVERSITET" TAMOYILI

YOSHLAR UCHUN IMKONIYAT

Samarqand agroinovatsiyalar va tadqiqotlar institutida Yevropa Ittifoqining "Erasmus+" dasturi tomonidan moliyalashtirilgan Oziq-ovqat innovatsiyalari bo'yicha ochiq universitet loyihasi aynan shu maqsadda yo'lga qo'yilgan. 2024-yil fevralda boshlangan loyihadagi Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan ikkita, Tojikistondan uchta, O'zbekistondan esa ikkita oliy ta'lim muassasasi ishtirok etyapti.

Uni amalga oshirishdan maqsad Markaziy Osiyo universitetlarida oziq-ovqatni qayta ishlash texnologiyasi yo'nalishi bo'yicha kunduzgi ta'lim shaklida o'qiyotgan talabalar bilan birga tashqi talabalar ishtirok etadigan ta'limning yangi shaklini ishlab chiqish va joriy qilishdan iborat.

Loyiha doirasida Yevropa Ittifoqidagi yetakchi universitetlarning malakali professor-o'qituvchilari ishtirokida oziq-ovqatni qayta ishlash texnologiyalari ta'lim yo'nalishiga oid 7 ta yangi o'quv rejasini hamda modullarni ishlab chiqildi. Besh professor-o'qituvchimiz Latviyaga malaka oshirishga yuborildi. Malaka oshirish davomida ular sut, go'sht, meva-sabzavot va donni qayta ishlash texnologiyasi hamda yangi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqish kabi olitfa fan modullini chuqur o'rganib qaytdi. Bundan tashqari, oziq-ovqat sifati va xavfsizligi bo'yicha 4 professor-o'qituvchimiz Slovakiyaning Nitra qishloq xo'jaligi universitetida malaka oshirishga yuborildi.

2025/2026-o'quv yilidan institutimizda "Don mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi" hamda "Akademik matn" fan modullari bo'yicha sinov tariqasida o'qitish jarayoni boshlangan. Ochiq ta'lim shaklidagi ushbu mashg'ulotlarda bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari, professor-o'qituvchilar, oziq-ovqat sanoati korxonalari vakillari, jumladan, "Agromir" va "Meva-Marogand" MCHJ xodimlari, turli oliy ta'lim muassasalari tadqiqotchilari ishtirok etmoqda.

Darslar sifatini yanada oshirish maqsadida joriy yil oktyabrda Latviya hayot fanlari va texnologiyalari universiteti hamda Slovakiyaning Nitra qishloq xo'jaligi universitetidan mutaxassislar kelib, talaba va tinglovchilarga nazariy hamda amaliy bilim berdi. Muhimi, mazkur o'qitish modeli oziq-ovqat sanoatida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar malakasini oshirish, mehnat bozorida qaroqatbardoshligini kuchaytirish bilan birga talabalarning amaliy ko'nikmalarini chuqurroq egallashiga ko'maklashmoqda.

Loyiha doirasida institutda "Don mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi" fan modullini o'qitish uchun zamonaviy laboratoriya jihozlari, ya'ni qoliqli non pishirish pechlari o'rnatildi.

"Ochiq universitet" loyihasi doirasida kerakli fan moduli o'qitib bo'linganidan keyin tinglovchilarga sertifikat beriladi. Hozircha korxona va tashkilotlardan 12 talabgor ushbu loyiha bo'yicha o'qidi, ya'ni kasbiga doir sirlarni chuqur o'rgandi. Bu tamoyil asosida kasb o'rganmoqchi bo'lgan talabgorlarni kelgusida ham o'qitish, ularning mehnat bozorida yetuk mutaxassis bo'lib yetishishiga ko'maklashish niyatidamiz.

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEV 9-DEKABR KUNI PAXTACHILIK VA G'ALLACHILIKNI MOLIALASHTIRISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH HAMDA AGRAR SOHADA SUBSIDİYALAR AJRATISH YANIGI TIZIMI YUZASIDAN TAQDIMOT BILAN TANISHDI.

Kelgusi yilda paxta va g'alla hosili, subsidiya va boshqa xarajatlarga jami 34,2 trillion so'm ajratish rejalashtirilgan, qo'shimcha 200 million dollar mablag' jalb etilib, **800 TA PAXTA TERISH MASHINASI XARID QILINISHI** aytib o'tildi hamda bu borada taklif etilayotgan yangi qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ko'rib chiqildi.

PAXTACHILIK VA G'ALLACHILIKNI MOLIALASHTIRISH, qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlash va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishga jami **29 TRILLION SO'M AJRATILDI**. SOHAGA **2,35 TRILLION SO'M SUBSIDİYALAR YO'NALTIRILDI**.

O'z mablag'idan paxta yetishtirgan xo'jaliklarga paxta qiymatining 10 FOIZI MIQDORIDA SUBSIDIYA AJRATILISHI NATIJASIDA **3430 FERMER VA KLASTERLAR 151 MING GAKTAR MAYDONDA O'Z MABLAG'I HISOBIDAN PAXTA YETISHTIRDI VA 1,9 TRILLION SO'M RESURS TEJALDI**.

Paxta yetishtirishga olingan kreditni joriy yil yakuniga qadar to'liq qaytargan fermerlarga foiz to'lovining 4 foiz bandini qaytarib berish imkoniyati tufayli 9002 TA FERMER 2,5 TRILLION SO'M IMTIYOZLI KREDITLARNI MUDDATIDAN OLDIN QAYTARDI.

O'z mablag'i hisobidan bug'doy yetishtirgan fermerlarga 10 FOIZ SUBSIDIYA AJRATISH TASHABBUSI BILDIRILDI.

Fermerlar orasida "intizomli bo'lish - arzon kredit" modelini shakllantirish uchun "A" kredit reytingiga ega xo'jaliklarga 2 foizga, "B" toifadagilarga 1 foizga pasaytirilgan stavkada kredit ajratish va shu orqali intizomli fermerlarning kredit yukini kamaytirish taklif qilindi.

O'zbekiston Prezidentining joriy yil 22-noyabrdagi "Agrar sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq agrar sohada davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida Qishloq xo'jaligi vazirligi huzurida Agrar sohada to'lovlar agentligi tashkil etildi.

Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida 52 turdagi subsidiya ajratilmoqda. Yangi tizimda ushbu jarayon soddalashtirilib, inson omili tubdan qisqartirilib, byurokratiya kamaytiriladi, arizalarni ko'rib chiqish to'liq raqamlashtiriladi va barcha jarayonlar "Agroportal" orqali amalga oshiriladi.

agroportal

KORRUPSIYA FAQATGINA PUL "OLDI-BERDI"SI EMAS

Dolzarb mavzu

Korrupsiya har qanday jamiyat farovonligi, milliy birdamligi, taraqqiyoiti va tinchligiga raxna soluvchi illatlardan biridir. Qaysi xalqda korrupsiya kuzatilsa, bu jamiyat parokandalikka yuz tutishi tayin. Zero, ushbu illat urchigan joy borki, turli kelishmovchiliklar yuzaga keladi, aholining davlatga ishonchi susayadi, odamlar orasida poraxo'rlik avj oladi, davlat xizmatchilari shaxsiy manfaati doirasida ish olib boradi, salohiyatli kadrlar o'rniga uquvsizlari maqom topadi.

Muborak islom dinida shuning uchun ham korrupsiyon holatlar qattiq qoralangan. Inson hayotida poraxo'rlik, firibgarlik, o'zgarlar rizqini nohaq yeyish kabi illatlar mavjud ekan, ularndan shaxs va jamiyatni xalos etish uchun harakat qilish, poraxo'rlikning oldini olish har bir insonning hayotiy vazifasi bo'lishi shart. Zotan, poraxo'rlik gunoh ishlardandir. Bir gunohni ko'rib turib, unga inadmaslik shu gunohga rozi bo'lish bilan barobar. Muborak dinimizda

birovning molini bu yo'llar bilan o'zlashtirish qattiq qoralangan. Alloh taolo Qur'oni karimning "Baqara" surasida bu haqda marhamat qilib, "O'rtalariningizni mol — boyliklaringizni botil yo'llar bilan yemang. Shuningdek, bila turib, odamlarning boyliklaridan bir qismini gunoh yo'l bilan yeyish maqsadida uni hukm chiqaruvchilarga havola etmang", deydi.

Bu o'rinda birovning haqini nohaq yeyishda pora beruvchi va oluvchi ham og'ir gunohkor

bo'lishi aytiladi. Alloh taolo Niso surasida bunday marhamat qiladi: "Ey iymon keltirganlar, bir-birlaringizning mollaringizni botil yo'l bilan yemang".

Poraning arabcha ma'nosi "rishva", islom ulamolari unga "Pora kishi o'zi haqli bo'lmagan narsasiga erishishi yoki zimmasida lozim bo'lgan narsadan qutulishi uchun taqdim etgan mol yoki manfaatdir", deb ta'rif beradilar.

Poraxo'r inson pora olish bilan diniga, imoniga, vijdoniga, ishonib topshirilgan vazifasiga, davlatiga, xalqiga, eng asosiysi, "yaxshilik qilyapman" deb oilasi va farzandlariga xiyonat qilayotganini yaxshi bilishi va anglashi lozim. Dinimiz ko'rsatmalarida poraxo'rlik qilinishdan qaytib, chin dildan tavba qilmasa, ularni dunyo va oxiratda nihoyatda og'ir jazolar kutib turgani oyat va hadislar orqali jiddiy ogohlantirilgan. Jumladan, Imom ibn Moja Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilgan hadisida bunday deyiladi:

"Rasululloh sollallohu alayhi vasallam pora berganni ham, pora olganni ham la'natladilar". Demak, pora talab qilish ham, pora berish

ham, ular o'rta-sida vositachilik qilish ham harom amaldir.

Yuqoridagi oyat va hadislardan anglash lozimki, pora olishning har qanday turli islom dinida qoralangan. Chunki pora oluvchi shaxs dunyo moli va nafi uchun vijdonini sotadi. Vijdonini sotgan shaxs oilasi, yaqinlari, xalqi va vatanga ham xiyonat qilishdan qaytmaydi.

Nohaq yo'l bilan daromad topman deb birovlarga zulm qilgan inson mol-mulkida hech qachon baraka bo'lmaydi, sarsonlik bilan hayot kechiradi. Zero, tarix davomida qaysi bir amaldor pora olgan bo'lsa yoki birovga adolatsizlik yuzasidan yon bosgan bo'lsa, oxir-oqibat moddiy-ma'naviy zarar ko'rgan ayon haqiqat.

Donishmand vazir Nizomulmulk "Siyosatnoma" asarida bunday yozadi: "Raiyatdan birortasi ne'mat haqini, omonlik va tinchlik qadriini bilmasa, xiyonat etishni andisha qilib, sotqinlik qilsa, nomardlik ko'rsatsa, haddidan oshib ketsa, gunohini to'yunga qo'yib, yarasha jazo berib, ishdan olib, ulardan voz kechish kerak".

Nizomulmulk xalqparvar, vatanparvar, sadoqatli, salohiyatli va imoni pok shaxslar vatanni obod etishi, shuningdek, xalqning moli mulkiga xiyonat qilmasligini bayon etadi. Agar qaysidir mansabdor o'z nafsini o'yab, xalq moliyaga xiyonat qilsa, bu kabilarni qonun bilan jazolab, ularni ishdan chetlatish zarurligini uqtirgan. "Siyosatnoma" asarining boshqa bir joyida aytadiki:

"Hozirgi zamon mansabdorlari shundayki, harom dinorlarga parvo qilmaydilar, haqiqatni behuda narsaga chiqaradilar, ish oqibatini o'ylamaydilar.

Ismoil (Somoniy)da bunday odat bor ekan: qattiq sovuqli kunlarda, qor yoki yomg'ir yog'sa ham yolg'iz o'zi maydonga chiqib, peshin namozi vaqtigacha otga minib turar ekan va aytarkanki, biror mazlum kishi hojati bo'lib saroyga kelsa-yu, turar joyi bo'lmasa, qor va sovuqda bizni ichkarida ko'rsa, biz bilan ko'rishishi qiyin bo'ladi. Biz kutib turganimizni ko'rsa, kelib ishini hal qilib, salomat qaytadi".

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, buyuk ajdodlarimiz asrlar davomida korrupsiyani

ma'naviy illat sifatida baholagan. Korrupsiya faqatgina pul shaklida bo'lmagisi mumkin, ayni zamonimizda uchrab turadigan birovning ishini hal qilib berish, boshqalarga adolatsizlik qilish, nafsiga erk berib, odamlarni aldash, moddiy manfaat orttirish maqsadida turli fitnalarni keng ommaga tarqatish, birovni qo'rqitib molini talon-taraj qilish, mansabdor shaxsning umumjamiyat mulkidan shaxsiy manfaati yo'lida foydalanishi kabi illatlar ham uning turli ko'rinishlaridir.

Korrupsiya adolat, tinchlik va farovonlik, umumtaraqqiyoit kushandasi ekan, unga qarshi kurashish har birimiz uchun ham qarz, ham farzdir. Buning uchun dastlab o'zligimizni anglab, nafsimizni to'g'ri yo'lga tarbiyalab borsak, ajdodlarimiz merosini o'rgansak, muhimi, korrupsiya ikki dunyo saodatini barbod etishini anglasak hamda qonunchilikda jazo muqarrarlrigini idrok etsak, yon-atrofimizdagilarga ham shunday fikr va qarashlarimizni voysak, jamiyatda unga nisbatan murosasiz muhit shakllanadi.

Karomiddin JAMAHMATOV,
Imom Temiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori
o'rinsbosari, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori



Abduxalil MAVRULOV,
tarix fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Haqiqatan, keyingi paytlarda yot g‘oyalarni toboraga ko‘payib bormoqda. E’tiqodni sust ayrim yoshlarimiz esa bu g‘oyalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish ko‘nikmasi yo‘qligi uchun murakkab jarayonda adashmoqda, “oq bilan qora”ning farqiga bormay, nojo‘ya harakatlar qilmoqda. Buning sabablari juda ko‘p. Biroq, nazarimizda, barcha sohalarida bo‘lgani kabi ma’naviy hayotdagi turbulent holati milliy tarbiya va ming yillar davomida shakllangan ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimizni ochiqdan-ochiq inkor etmoqda.

Xo‘sh, turbulent holati nima degani? To‘g‘ri, turbulentlik girdibli harakat, jo‘shqinlik, tartibsizlik kabi ma’nomlarni anglatgan holda ko‘pincha aniq, tabiiy fanlar atamasi sifatida foydalaniladi. Biroq bugungi kunda mazkur atama ijtimoiy hayotning barcha sohalarini, jumladan, mamlakatlarning tashqi siyosati, milliy va umumbashariy muammolarni hal etishda ham keng qo‘llanilmoqda.

Har qanday jamiyatda inson rivojining old sharti, eng muhim mohiyati, avvalo, uning erkiniylik va mustaqilligida namoyon bo‘ladi. Erkinlikdan foydalanish imkoniyatining zaruriy sharti insondagi ichki tarbiya va o‘zaro munosabatlardagi tartibga hurmat bilan qarash hisoblanadi.

Shu ma’nodan ta’kidlash lozimki, erkinlik bu — tartib. Tartibsizlik sharoitida erkinlikdan foydalanish aslo mumkin emas. Intizom tartibga nisbatan hurmatning namoyon bo‘lishidir. Intizom hayotning har qanday sohasi va tartibotning har bir darajasida samarali faoliyatning zaruriy shartidir. Har qanday sharoitda, har bir sohada tartib buzilishi umumiy jarayonlarni ishdan chiqaradi, pirovard natijada inqirozli holat, beqarorlikni yuzaga keltiradi.

Bu, ayniqsa, ma’naviyat, tarbiya sohalarida jiddiy xavf-xatarni paydo qilishi mumkin. Haqiqatan, ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida, globallashuv avj olgan va insoniyatning ming yillar mobaynida shakllangan qadriyatlari katta xavf ostida turgan bir paytda turbulent holati ma’naviyat, tarbiya jabhasida ham jiddiy muammolar keltirib chiqarmoqda.

Bunday muammolar ko‘p hollarda ma’naviyatni tushinishda, odamlar tarbiyasida an’anaviy qadriyatlar, shakllangan me’yorlardan foydalanishga ustuvor ahamiyat berayotgan, bu jarayonga muayyan darajada arxai-konservativ munosabatda bo‘layotganlar bilan masalaga innovatsion tarzda qaraydiganlar o‘rtasidagi jarlikning tobora kengayib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Afsuski, bu jarlik kundan kunga kengaymoqda. Ma’naviyat va tarbiya masalasida konservativ va innovatsion taraflarning kelishmovchiligi, ular o‘rtasidagi ziddiyatli holatlar mazkur sohalaridagi turbulent holatining ta’sirini yanada kuchaytirmoqda.

Ma’naviyat, ma’rifat, tarbiya, umuman, inson, jamiyat munosabatlarga keyingi yillarda tobora avj olib borayotgan to‘rtinchi sanoat inqilobi nihoyatda katta ta’sir ko‘rsatmoqda. 1760-yillardan 1840-yillargacha qavim etgan birinchi sanoat inqilobi to‘rtinchi sanoat inqilobi bilan avj oldi. Bu davr “kompyuter inqilobi” davri ham deb ataladi. Ta’kidlash lozimki, har uchala sanoat inqilobi ham insoniyatni umumiy taraqqiyotga boshladi, odamlar tafakkur tarzini kengaytirdi, katta hajmdagi ishni qisqa vaqt orasida bajarish, rivojlanishning ekstensiv yo‘lidan intensiv yo‘liga o‘tish imkonini berdi.

To‘rtinchi sanoat inqilobi boshlanish davri esa XXI asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Mazkur jarayon teng miqdordagi ulkan imkoniyatlar va katta muammolarni keltirib chiqara boshladi. Ular orasida eng e’tiborga moligi ijtimoiy tengsizlik kuchayishi bo‘ldi. O‘tib borayotgan tengsizlik tufayli kelib chiqqan muammolar miqdorini o‘lchash tobora qiyinlashib bormoqda.

Hozirgi sanoat inqilobi natijasida namoyon bo‘layotgan yangi texnologik inqilob ko‘lami shu qadar ulkan iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqdaki, ularni ko‘z oldimizga keltirish deyarli imkonsiz. Mazkur sanoat inqilobi avvalgilardan tezligi, ko‘lamidan tashqari ko‘p sonli va xilma-xil sohalar hamda kashfiyotlarni uyg‘unlashtira olishi bilan ham ajralib turadi. Turli texnologiyalarning o‘zaro birlashuvidan hosil bo‘ladigan real innovatsiyalar endi ilmiy fantastika emas.

Masalaning muhim jihatlaridan yana biri shundaki, to‘rtinchi sanoat inqilobi markazida sun’iy intellekt turibdi. Sun’iy intellekt kompyuterlar hisoblash quvvatining geometrik progressiya bo‘ylab o‘sishi va ulkan ma’lumotlar bazasiga tayangan holda madaniy, ma’rifiy qiziqishlarimizni o‘lindand aytib beruvchi algoritmilar kabi hayratomuz yutuqlarga erishmoqda.

To‘rtinchi sanoat inqilobi, sun’iy intellekt insoniyatning hozirgacha mavjud bo‘lgan yashash standartlariga, shart-sharoitlarimizga bir tomondan ijobiy, boshqa tomondan salbiy ta’sir o‘tkazish kuchiga ega. Ayrim qurilmalar turli sohalaridagi ehtiyojlarimizni o‘lindand aytib berish imkoniga ham ega bo‘lmoqda.

Boshqacha aytganda, sun’iy intellekt insonning ijodiy qobiliyati, uni amalga d ro‘yobi masalalarini o‘z “qo‘l”iga olayotganini tan olishga to‘g‘ri keladi. Masalan, yozuvchilik va avtomatik hikoya yaratish texnologiyasini olib ko‘raylik. Murakkab algoritmilar har qanday kitobxonga mos uslubda hikoya yarata oladi. Hikoya mazmuni inson mahsuliga shu qadar o‘xshaydiki, “New York Times” gazetas o‘tkazgan so‘rovnomada bir-biriga o‘xshash ikki xil matn berilganida ishtirokchilar ulardan qaysi birini odam, qaysisini robot yozganini ajrata olmad.

Bu texnologiya jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Shu bois, avtomatik hikoya yaratish texnologiyasiga ixtisoslashgan “Narrative science” asoschilaridan biri Kristian Hammond kelajakda yangiliklarning 90 foizi algoritmilar tomonidan yozilishini bashorat qilgan. Bu algoritmilarning asosiy qismi odam ishtirokisiz ishlaydi.

Haqiqatan, bunday jahoniy o‘zgarishlar yangi O‘zbekistonga ham jadal kirib kelmoqda. Bugun raqamli texnologiya, sun’iy intellektiz har qanday davlatning na iqtisodiy-ijtimoiy, na madaniy-ma’rifiy sohalaridagi o‘zgarishlarini tasavvur qilish qiyin. Shu o‘rinda davlatimiz rahbarining joriy yil 16-sentyabrda “Respublikaning hudud, soha va tarmoqlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori alohida ahamiyatga ega ekanini ta’kidlash o‘rinli.

Unga ko‘ra, 2025-2026-yillarda “Raqamli hukumat” dasturi doirasida 41 ta ustuvor loyihani ishga tushirish, elektron davlat xizmatlari ulushini 70 foizga yetkazish hamda mahallalarda 30 dan ortiq davlat xizmatini ko‘rsatish, aholi va

yillarda boshqalar dardini tinglash va unga sherik bo‘lish darajasi 20-30 yil avvalgidan 40 foiz kamaygan.

Buning sababi esa to‘rtinchi sanoat inqilobi oqibatida odamlar, ayniqsa, ayrim yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga “mixonib” qolishi, pirovard natijada ularning jamiyat, oilasidan begonalashib borishidagi sur’at tezlashishidir.

Bugungi kun odami ruhiy holatida eng ko‘p uchraydigan salbiy ko‘rinish hissizlik hisoblanadi. Aksar odamlar hissizlashgan qalbi bilan atrofidagi

Biroq to‘rtinchi sanoat inqilobining hayot tarzini yaxshilashga, moddiy farovonlikni yanada to‘kislashirishga shubha qilish mumkin emas. Haqiqatan, sun’iy intellekt, raqamli texnologiya mamlakat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqadi, o‘z navbatida, xalqimiz farovonligi ham tobora yaxshilanib boraveradi.

Ayni paytda bu o‘zgarishlar silsilasida tarbiya, madaniyat, ma’naviyat masalalari qay ahvolda bo‘lishini tasavvur qilish biz uchun juda muhim. Chunki to‘rtinchi sanoat inqilobi natijasida

ijtimoiy adolat tamoyillari tobora keng ko‘lamda o‘zini namoyon etmoqda, davlatning korruptsiya holatlariga qarshi kurashi xalqimiz tomonidan mamnuviyat bilan qabul qilinmoqda, bularning bari pirovard natijada odamlarda shukronalik kayfiyatini shakllantirmoqda.

Biroq odamlarimizda ruhiy muvozanatni ta’minlashga xalaqit qilayotgan qator subyektiv omillar borki, ularni e’tiborga olmaslik ayrim salbiy holatlarga olib kelishi mumkin. Shuni qat’iy ravishda aytish mumkinki, bugun ayrim

talab etiladi. Ma’naviy-tarbiyaviy, madaniy sohalaridagi ishlar samarasi pastligi, ijtimoiy tarbiya sohasi ishlovchilar faoliyatining ko‘pincha arxai-konservativ mazmunga ega ekan odamlar, ayniqsa, yoshlarda bu tadbirlarga ommaviy qiziqishni susaytirayotganiga ham alohida e’tibor berish lozim deb o‘ylaymiz. Bu borada Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan qator jiddiy ishlar olib borilayotganini ta’kidlash lozim.

Masalan, markaz hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda targ‘ibot usulini raqamlashtirishga alohida e’tibor qaratmoqda, raqamli formatdagi loyihalarni ko‘rib, ularning ta’sirchanligiga qarab, ko‘nglingiz ko‘tariladi. Yaqin-yaqingacha ham markaz, asosan, an’anaviy yig‘ilishlar, turli ko‘ngilochar tadbirlar o‘tkazuvchiga aylanib qolgand. Endi esa markaz faoliyatining 70 foizidan ortig‘i ijtimoiy tarmoqlar vositasida, ta’sirchan usullarda olib borilmoqda.

Oxirgi paytlarda markaz tomonidan zamonaviy, yoshlarni tashabbuslar, islohotlarga safarbar etishga undaydigan 10 dan ortiq ijtimoiy rolik, sun’iy intellekt yordamida yaratilgan animatsion roliklarni ko‘rib ko‘z quvonadi, ulardagi yig‘it-qizlarni vatanparvarlik, milliy o‘zlikka chorlaydigan g‘oyalarni esa barchada ko‘tarinkilik ruhini shakllantirmoqda.

Yana bir loyihani ko‘rib, ochig‘i, xursand bo‘ldim: “Vatan” qo‘shiqlar to‘plami yaratilib, yoshlarning gajetlaridan o‘rin olgan musiqiy platformalarga joylashtirilibdi. Sun’iy intellekt yordamida ijtimoiy roliklar tayyorlash an’anaga kirib borayotganini alohida qayd qilish kerak.

Ha, bu dunyo raqobatli dunyo. Zamondan ortda qolganni bugun hech kim kechirmaydi. Madaniyat va ma’naviyat sohalarida zamonaviy, ilg‘or, innovatsion usullarda ishlayotgan mustaqil ijodiy guruhlar paydo bo‘layotgani, ular o‘z faoliyatini yoshlarning tobora o‘tib borayotgan ma’naviy-madaniy ehtiyojini hisobga olgan holda tashkil etayotgani ham e’tiborga molik. Ular raqamli texnologiyalardan keng foydalanyapti. Natijada davlat va nodavlat madaniyat, boshqa ijodiy tashkilotlar orasida o‘ziga xos musobaqa boshlanmoqda.

Shu ma’nodan, madaniyat, ma’naviyat, ma’rifat va tarbiya sohasi faoliyat yuritayotgan, yuqorida aytganimizdek, avtomatlashtirishga kam moyil sohalar xodimlarining yangi texnologiyalarni o‘rganishga qiziqishini kuchaytirish maqsadga muvofiq. Mazkur soha vakillari raqamli texnologiya mutaxassislari bilan o‘zaro hamkorlikda bo‘lishi kerak. Kurashish, raqobat qilish emas, aynan hamkorlik gumanitar sohada kutilgan samaraga yaqinlashtiradi.

Shuni yodda saqlash kerakiki, hamkorlik faqat ishlab chiqarishga taalluqli emas. Hamkorlik barcha sohalar uchun zarur. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt asosida qilinayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar masalaga innovatsion yondashuvi bilan odamlarni o‘ziga ram qilishi mumkin. Biroq bu jarayonda sof insoniy qarashlar, o‘zaro munosabatlar, odamlarning bir-biriga dardkashligi kabi siqatlarini topish mushkul.

Boshqacha aytganda, tom ma’nodagi sun’iy intellekt, texnologik inqilob tufayli yaratilgan turli dasturlar insoniy hissiyot, qalb kechinmalaridan muayyan ma’nodan uzoq turadi. Nazarimizda, avvalo, biz oladigan axborot, ma’lumotlar, bilimlar, shubhasiz, tafakkur tarzimizni boyitadi, bilimimizni kengaytiradi. Ammo o’sha jarayonlar inson qalb hissiyotlari bilan uyg‘unlashsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki qalb his qilmay qolsa, aql kuchi ortadi. Biroq aql kuchi qalbsiz ortsa, donolik yo‘qoladi, kishi kelajagini ko‘rmay qoladi. Donolik faqat his qila oladigan odamda bo‘ladi, lekin his qilolmagan inson uni “ko‘rolmaydi”.

Shu nuqtayi nazaridan, sun’iy intellekt, texnologik inqiloblar tufayli yaratilgan asarlar, dasturlar sof insoniy hissiyotlar, qalb qo‘ri bilan boyitilsa, shubhasiz, yoshlarimiz bir tomonlama “keirib qolishi”ning oldini olamiz, turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish imkoniga ega bo‘lamiz.

Biz bugun tan olishimiz shart ko‘lgan ijtimoiy, jahoniy haqiqat shuki, to‘rtinchi sanoat inqilobi natijasida hayotimizga jadal, shiddat bilan kirib kelayotgan sun’iy intellekt, yangi texnologik inqilob barchamizning hayotga, turmushimiz, qadriyatlarimizga munosabatlarni o‘zgartirmoqda. Bu halli boshlanishi. Kelajakda yuqorida ta’kidlaganimiz kabi nima bo‘lishini tasavvur qilish mumkin. Ma’naviyatdagi turbulent holatini e’tiborga olmasak, girdobga tushib qolish, tartibsiz hayot kechirish xavfidan ogoh bo‘lmasak, yangi texnologik inqilob tomonidan yaratilgan dasturlar, yangiliklarni e’tirof etmasak, pirovard natijada ko‘p narsalarni yo‘qotamiz.

Shuning uchun yangi O‘zbekistonda bu masalaga davlat tomonidan keng e’tibor berilmoqda. Joylarda yoshlar texnoparklari, AT parklar, “Raqamli texnologiyalar” o‘quv markazlari tashkil etilib, “Bir million dasturchi” kabi o‘nlab yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz aytganidek, bugun yoshlarimiz ilm-fanning barcha sohalarida dadil qadam tashlab, jahonda yuz berayotgan texnologik inqilobda faol ishtirok etmoqda.

Ma’nan boy, mafkuraviy immuniteti mustahkam, har bir sohada an’anaviylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtira olish imkoniyatiga ega yoshlar bilan texnologik inqiloblar, globallashuv tufayli muayyan ma’nodan paydo bo‘layotgan turbulent holatini bartaraf etish, turli mafkuraviy tahdidlardan xoli bo‘lish mumkin.



Nuqtayi nazar

odamlar — ba’zan turmush o‘rtog‘i, goho bolasi, ayrim hollarda do’siti, ko‘chasiidagi qo‘shinisi qiyayotganini, unga azob berayotganini bilmaydi. Ijtimoiy tarmoqlarga “quillik”, nazarimda, odamlarda bir-biriga munosabatlar qalbnig emas, aqlning nazoratida bo‘lgana o‘xshaydi. Kulishimiz, yig‘lashimiz, odamlar bilan o‘zaro aloqalarimiz ichimizdan, yurak-yurakdan emas, kulishimiz lozim bo‘lgani uchun, yig‘lashimiz shart bo‘lgani uchundek tuyuladi. Buning sababi ham bugun ayrim odamlarimizda sof insoniy his yo‘qolib borayotgani, his shaxslarning tashqi etilishini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori alohida ahamiyatga ega ekanini ta’kidlash o‘rinli.

Unga ko‘ra, 2025-2026-yillarda “Raqamli hukumat” dasturi doirasida 41 ta ustuvor loyihani ishga tushirish, elektron davlat xizmatlari ulushini 70 foizga yetkazish hamda mahallalarda 30 dan ortiq davlat xizmatini ko‘rsatish, aholi va

an’anaviy shakllangan turmush tarzimiz, odamlar o‘rtasida mavjud munosabatlar, ayniqsa, milliy qadriyatlarimizga qarashlarimiz o‘zgarib ketmoqda. Buning oqibatlarini bugun ham kuzatish mumkin.

Bularning bari ma’naviy hayotimizda turbulent holatini paydo qilmoqda. Shu o‘rinda ma’naviyat, madaniyat, tarbiya borasida turbulent hodisasinging ayrim ko‘rinishlari haqida fikrlashamiz. Nazarimda, bunday holat shakllanishi inson shaxsiyati buzilishi bilan bog‘liq. Shaxsiyat insonning o‘ziga xosligi, o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqalardan ajralib turishi hisoblanadi.

Ijtimoiy tarmoqlarning haddan tashqari kengayib borishi, odamlar, ayniqsa, yoshlarning uzoq muddatli ketishi, o‘z navbatida, e’tiqodni sust, milliy qadriyatlarimizdan muayyan darajada begonalashganlarda birxillashuv jarayonini yuzaga keltirmoqda. Ularining tafakkur tarzi, fikrlashi, odamlar, jamiyatga nisbatan munosabatlari yaxlitlik alomatlari ham kengayib, ham chuqurlashib bormoqda.

Bu esa shaxsiyati bir xil odamlar ko‘payishiga olib kelyapti. Shaxsiyatning birxillashuvi yoshlarning o‘z iste’dodi, imkoniyatlarini namoyon etishiga to‘sqinlik qiladi, sog‘lom raqobatni, tashabbuslarni so‘ndiradi. Sog‘lom shaxs esa o‘ziga xos xarakter, xislatlari orqali shaxsiyatini shakllantira olgan kishidir.

Shaxsiyatning buzilishi insonda qator salbiy holatlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu, birinchi navbatda, insondagi marginallik bilan bog‘liq. Marginallik biror shaxs yoki guruhning jamiyatga muayyan ijtimoiy guruh, tabaqa va qatlamiga mansub bo‘lmay, ular oraliq’ida o‘rin egallab turishini anglatadi. Shuningdek, marginallik deganda, mamlakat aholisining muayyan qismi “arasotda qolishi”, o‘z ijtimoiy guruhidan begonalashishini ham tushunish mumkin. Ijtimoiy-ma’naviy hayotdagi turbulent holat shunday salbiy holatga olib kelishi mumkinligini aslo esdan chiqarmaslik lozim.

Bugun dunyoning ko‘plab mamlakatlari aholisi ichida ana o’sha marginallik juda kuchaymoqda. Ular o‘z shaxsiyatidan mosuvo bo‘lib, jamiyat, oilasidan tobora uzoqlashib, begonalashuv jarayoni kengaymoqda. Har bir davlat o‘z tarbiya tizimida ana shu holga e’tibor berishi lozimligini unutish og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligi bugun oydak ravshan.

Texnologik inqilob turbatilik paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan qubulitilik holatni odamlarda ruhiy muvozanat buzilishiga olib keladi. Ruhiy muvozanat inson va turli jamoalar hayotining muhim shartidir. Afsuski, inson ruhiyati dinamik bo‘lib, vaqti-vaqti bilan muvozanatni yo‘qotadi — ba’zan kamroq, ba’zan esa kattaroq darajada. Bu hollarda inson ruhiyati butunlay nazoratdan chiqib ketishi ham mumkin. Bunda inson o‘zini yomon his qiladi. Noto‘g‘ri o‘ylangan ish yoki majburiy faoliyat, vasvasalar, ochko‘zlik, zaiflik, beparvolik yoki adashish muvozanatni buzadi.

Albatta, inson ruhiy muvozanati buzilishi ko‘p omillarga bog‘liq. Har bir davlat o‘z tarbiya tizimida, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda, odamlar ruhiy muvozanatini barqarorlashtirishda jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy jihatdan qanchalar darajada barqarorligiga, mamlakatda amalga oshirilayotgan ishlar, davlat tomonidan olib borilayotgan barcha sohalaridagi islohotlar, siyosiy jarayonlarning fuqarolar manfaatlariga qay darajada muvofiqligi kabi omillarga alohida e’tibor berish lozim.

Biz yuqorida sanab o‘tgan omillar bugun yangi O‘zbekistonda barpo etish jarayonida to‘liq amalga oshayotganini ko‘rish qiyin emas. Jamiyatda



tadbirkorlar uchun 100 dan ortiq elektron xizmat joriy etish, shu jumladan, 10 turdagi davlat xizmatini proaktiv va kompozit shaklga o‘tkazish, 19 ta hayotiy vaziyatda fuqarolarga avtomatik tarzda xabar yuborish choralarini belgilandi.

Raqamli texnologiyalar to‘rtinchi sanoat inqilobining vorisi sifatida bugun butun dunyo taraqqiyyotning eng ishonarli, arzon va qulay sohasiga aylandi. Biz yuqorida yozuvchi va avtomatik sun’iy usulda hikoya yozish masalasini ko‘rib chiqdik. Haqiqatan, hikoya, she’r, roman va boshqa adabiy-badiiy asarlarni shu tarzda yozish mumkin. Ammo masalaning boshqa muhim jihati bor. Gap o’sha asarlarning o‘quvchiga ruhiy tomondan va milliy o‘zlikni anglashga ko‘rsata oladigan ijobiy ta’siri haqida ketmoqda. Yana savol tug‘iladi: biz algoritmilar maslahatiga quloq tutamizmi yoki o‘zimizni qurshab olgan jamiyat, oila a’zolarimiz, yaqinlarimiz, hamkasblarimizgami?

Sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar tomonidan yaratilgan “asarlar” qay darajada mentalitetimizga, shaxs, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarmizga ta’sir qilishi mumkin? Umuman olganda, bu o’ta murakkab savollar.

Keling, shu o‘rinda shaxs hissiyoti, hislari haqida ikki og‘iz fikrlashamiz. Odamlarda bugungi kunda jadal rivojlanayotgan globallashuv, turli ichki va tashqi mafkuraviy tahdidlar tufayli boshqalarning dardi, muammolarini his etish darajasi tinimsiz pasayayapti. Masalan, keyingi

